



## SOLIQ TIZIMIDA ELEKTRON HUJJAT AYLANISHINING SOLIQ MA'MURCHILIGIGA TA'SIRI

*I.f.f.d. (PhD) Muxammadov Nodir Karimovich*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*ORCID: 0009-0008-2029-6968*

*[nodir.muhammadov@gmail.com](mailto:nodir.muhammadov@gmail.com)*

**Annotatsiya.** O'zbekiston soliq tizimining asosiy ishtirokchilari soliqchilar va soliq to'lovchilar sifatida qarash muhim hisoblanib, soliq tizimidagi soliqchilarning huquq va majburiyatlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish orqali takomillashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha tahlil qilish va ta'sirchan choralar ishlab chiqish.

**Kalit so'zlar:** soliq kodeksi, imtiyozlar va preferensiyalar, soliq solishning asosiy prinsiplari, elektron hujjat, soliq tizimi, an'anaviy soliq, ma'lumotlar bazasi, tejamkorlik, kameral nazorat.

## ВЛИЯНИЕ ЭЛЕКТРОННОГО ДОКУМЕНТООБОРОТА В НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЕ НА НАЛОГОВОЕ АДМИНИСТРИРОВАНИЕ

*К.э.н., Мухаммадов Надир Каримович*

*Ташкентский государственный экономический университет*

**Аннотация.** Важно рассматривать основных участников налоговой системы Узбекистана как налогоплательщиков и налогоплательщиков, совершенствовать права и обязанности налогоплательщиков в налоговой системе, путем широкого внедрения современных информационно-коммуникационных технологий и передовых автоматизированных методов анализа, а также расширить налоговую базу. анализ и разработка эффективных мер.

**Ключевые слова:** налоговый кодекс, льготы и преференции, основные принципы налогообложения, электронный документ, система налогообложения, традиционный налог, база данных, бережливость, камеральный контроль.

## IMPACT OF ELECTRONIC DOCUMENT CIRCULATION IN THE TAX SYSTEM ON TAX ADMINISTRATION

*PhD, Mukhammadov Nadir Karimovich*

*Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** It is important to consider the main participants of the tax system of Uzbekistan as taxpayers and tax payers, to improve the rights and obligations of taxpayers in the tax system, by widely introducing modern information and communication technologies and advanced automated analysis methods, and to expand the tax base. analysis and development of effective measures.

**Keywords:** Tax Code, benefits and preferences, basic principles of taxation, electronic document, tax system, traditional tax, database, thrift, camera control.

## Kirish.

O'zbekiston ham rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayanib Hukumat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarni elektron interaktiv xizmatlar asosida tashkillashtirishga o'tmoqda. Soliq tizimida ham soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni raqamlashtirish orqali takomillashtirmoqdalar. Raqamli texnologiyani o'zlashtirish muvaffaqiyatli va samarali soliq islohotlarini amalga oshirishga, raqamli iqtisodiyotning bexato soliqqa tortilishini ta'minlashga va rioya qilish yo'lidagi to'siqlarni kamaytirishga hamda inson omilini qisqartirishga imkon beradi.

## Adabiyotlar sharhi.

Kukarina (2004) o'z tadqiqotlarida, birinchi navbatda, tadqiqotning yangi predmeti - menejment sohasiga faol joriy etilayotgan va qonunchilikni birlashtirishni talab qiluvchi elektron hujjat ekanligini ta'kidlagan. Bu sohadagi birinchi qonunlar faqat XX asrning 90-yillari o'rtalarida paydo bo'lgan. Shuning uchun ilmiy ishlarda elektron hujjat hodisasini tushunish asta-sekin undan foydalanish tajribasini to'plashdan boshlanishini qayd etgan. Ularda mavjud ta'riflarning qiyosiy tahlili o'tkazilib, "elektron hujjat" va "elektron imzo" yangi tushunchalarini shakllantirish jarayoni hujjat aylanishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqqan.

Chervatyuk (2020) elektron hujjat aylanishining zamonaviy jarayonlardagi talablarini tahlil qilgan va quyidagilarni amalga oshirgan:

1) zamonaviy elektron arxivlar va elektron hujjat aylanish tizimlarini, mavjud mahsulot ma'lumotlarini boshqarish tizimlari imkoniyatlarini, elektron hujjatlardan foydalanish huquqlarini differentsiallashtirish tamoyillarini qiyosiy tahlil qilgan;

2) nodavlat notijorat tashkilotlarining texnik hujjatlari elektron arxivi va elektron hujjat aylanishi uchun ma'lumotlar ombori modelini ishlab chiqqan;

3) axborotni himoya qilishning zarur darajasiga ega bo'lgan NNTlar o'rtasida elektron texnik hujjatlar almashinuvi modeli va algoritmlarini ishlab chiqqan;

4) nodavlat notijorat tashkilotlari texnik hujjatlari elektron arxividan ma'lumotlarni qayta ishlash algoritmlarini ishlab chiqqan, bu esa texnik hujjatlarning yangi nusxalarining asl nusxalarini yaratish jarayonini avtomatlashtirish imkonini bergan;

5) texnik hujjatlar elektron arxivi va nodavlat notijorat tashkilotlarining elektron hujjat aylanishi ma'lumotlar ombori axborot tizimi (AT) uchun tizimli-funksional echimni ishlab chiqqan;

6) laboratoriyada AT algoritmlarining ishlashi va samaradorligini tekshirgan va elektron hujjat aylanish tizimida arxivlash zarur jarayon ekanligini ta'kidlab o'tgan (Chervatyuk, 2020).

Iqtisodchi olim Bisultanov (2019) o'zining ilmiy ishida soliq ma'murchiligini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish metodologiyasini ishlab chiqqan. Olim soliq ma'murchiligini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish uchun soliq mu'murchiligi kategoriyalarini kompleks tahlil qilgan va yangi kategoriyalar joriy qilingan; soliq organlari va soliq to'lovchilarning munosabatlarini tizimlashtirish orqali soliq ma'murchiligining instrumentlari va usullarini o'rgangan; uchinchidan Rossiya hududlaridagi zamonaviy soliq ma'murchiligining holatini o'rgangan va sifat darajasini baholagan; to'rtinchidan, soliq ma'murchiligini rivojlantirishning raqamli iqtisodiyot sharoitida an'anviy va innovatsion usullardan foydalangan holda yo'nalishlarini aniqlagan hamda tavsiyalar ishlab chiqqan; beshinchidan, raqamli soliq tizimi hisobi va soliq ma'murchiligining yagona modelini ishlab chiqqan, hamda foydalanish jarayonidagi samaradorligini aniqlagan.

Kortikov (2013) ta'kidlashicha axborot resurslarini integratsiyalash usullarini ishlab chiqish axborot tizimlari sohasidagi eng dolzarb muammolardan biridir. So'nggi yillarda ma'lumotlar manbalarining yuqori darajada turli xilligi tufayli u ayniqsa katta e'tiborni jalb qila boshladi. Har xil turdagi elektron hujjatlarning mavjudligi elektron hujjat aylanish tizimini juda dolzarb axborot tizimiga aylantirdi. Olim mavjud elektron hujjat aylanish tizimlarini tahlil qilgan va elektron hujjat aylanish tizimlarining tasnifini tuzgan. Elektron hujjat aylanishi

tizimining ishlashi uchun asosiy tamoyillar va talablarni aniqlagan. Ilmiy ish doirasida sohasining strukturaviy modelini yaratgan. Strukturaviy modelning birgalikda ishlashini miqdoriy baholashni ta'minlaydigan raqamli usullar va tegishli algoritmlarni ishlab chiqqan.

Jarkov (2014) ta'kidlashicha, elektron hujjat aylanish tizimi axborot texnologiyalari asosida tashkilotning ichki va tashqi hujjatlar aylanishini tartibga soladi va tartibli boshqaradi.

Shreyter (2015) elektron hujjat aylanishi sohasini kengroq o'rgangan. Korxonalarda qog'oz hujjat aylanishi jarayonlarini tahlil qilib bu jarayonlardagi bir qartor kamchiliklarni keltirib o'tgan. Jumladan, qog'oz hujjatlarning saqlash jarayonlari va ular uchun katta miqdorda joy hamda tegishli sharoitlar yaratilishi kerakligini katta xarajat sifatida e'tirof etgan. Ikkinchi navbatda, qog'oz hujjatlarni qayta ishlash yoki tahlillar o'tkazish jarayonining qiyinligi va ko'p vaqt sarflanishi bilan uning samarasizligini aniqlagan. Natijada elektron hujjat aylanish tizimining joriy qilinishini tabiiy zarurat sifatida tariflagan. Hamda elektron hujjat aylanishiga bu – korxonada elektron hujjatlari bilan ishlaydigan yagona mexanizm va qog'ozsiz ishlash jarayonini joriy qilish deb ta'rif bergan.

Stolbovning (2007) fikricha elektron hujjat aylanishi – bu me'yoriy-huquqiy hujjatlar, standartlar asosida elektron hujjatlarni bulutli texnologiyalarda saqlash, qabul qilish va yuborish. Shuningdek, ularni aloqa tarmoqlari orqali ishonchli va xavfsiz yuborilishini ta'minlashdan iborat.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**


Ushbu maqolada qiyosiy tahlil hamda induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy usuldan foydalanilib, soliq ma'murchiligiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali soliq bazasini kengaytirishga doir ma'lumotlar va ularni tahlillar amalga oshirilib ilmiy xulosalar berildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

O'zbekiston soliq tizimining asosiy ishtirokchilari soliqchilar va soliq to'lovchilar sifatida qarash muhim hisoblanib, soliq tizimidagi soliqchilarning huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi "Soliq xizmati to'g'risida"gi O'RQ – 474-I-son qonun (1997) bilan tartibga solinadi. Qonunga muvofiq soliq tizimi organlar soliqlar va majburiy to'lovlarni to'g'ri, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazorat qilish uchun joriy qilinadi. Qonunning 4-moddasi bilan soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari qilib, soliq siyosatini amalga oshirish hamda soliq to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi, soliqlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni ta'minlash, soliqlarning soliq to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'liq hamda o'z vaqtida tushishini ta'minlash, soliq to'lovchilarni va soliq solish obyektlari o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, ularning to'liq qamrab olinish mexanizmlarini soliq ma'murchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish orqali takomillashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha tahlil qilish va ta'sirchan choralar ishlab chiqish, shu jumladan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali ta'sirchan choralar ishlab chiqish, soliqlar yig'ilishini oshirish bo'yicha choralarni amalga oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish, soliqlarga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni bajarish va pul mablag'larining g'ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining to'liq va o'z vaqtida topshirilishi ustidan muntazam nazoratni ta'minlash, soliq to'lovchilar bilan ishlashni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan soliq to'lovchilarga muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga o'tish yo'li bilan amalga oshirish hisoblanadi.

Bundan tashqari soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko'maklashish, soliqlarning ixtiyoriy ravishda to'lanishini ta'minlashga qaratilgan, soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha ishlarni takomillashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlar, yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatini rag'batlantirishga, ularga zarur imtiyozlar va preferensiyalar berishga doir qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish, bozorlar va savdo komplekslarining moliya-xo'jalik faoliyati, soliq organlarini yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan malakali xodimlar bilan to'ldirish, korrupsiya va ishga rasmiyatchilik bilan yondashish faktlariga barham berish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlari yaratilishini ta'minlashdan iboratligi belgilab o'tilgan (Qonun, 1997). Soliq tizimi organlarining asosiy huquqiy hujjat, Soliq xizmati organlari to'g'risidagi qonun hisoblanadi.


Soliq munosabatlarning ikkinchi ishtirokchisi bo'lmish soliq to'lovchilarning ham huquqlari va majburiyatlari mavjud. Soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlarini tartibga soladigan asosiy hujjat O'zbekiston respublikasining soliq kodeksi hisoblanadi. Soliq kodeksining 1-moddasiga muvofiq kodeks soliqlar va yig'implarni belgilash, joriy etish va bekor qilishga, hisoblab chiqarish hamda to'lashga doir munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Soliq solish O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 7-moddasiga muvofiq prinsiplar asosida tartibga solinadi. Soliq solishning 8 ta asosiy prinsipi mavjud. Shu prinsiplar asosida soliqqa tortish amalga oshirilgan taqdirda davlat byudjeti o'z vaqtida to'ldiriladi va soliq to'lovchilarning soliq yuki me'yoriy darajada bo'ladi. Shu prinsiplar asosida soliqqa tortish amalga oshirilsa, yashirin iqtisodiyotning kamayishiga investitsion muhitning yanada yaxshilanishiga olib keladi. Sabab chet ellik investorlar qonun ustuvor bo'lgan mamlakatlarga doimiy ravishda oqib kelishadi. Soliq to'lovchilar soliq munosabatlarning subyektlari hisoblanadi. Soliq kodeksiga muvofiq soliq solish obyekti mol-mulk, harakat, harakat natijasi yoki qiymat, miqdoriy yoki fizik xususiyatga ega bo'lgan boshqa holat bo'lib, u mavjud bo'lganda soliq to'g'risidagi qonunchilik soliq to'lovchida soliq majburiyatini vujudga keltiradi (Qonun, 2019).



**1-rasm. Soliq solishning asosiy prinsiplari**

*Manba: Soliq kodeksi asosida muallif tomonidan tayyorlangan.*

Soliqqa tortishning majburiylik prinsipi soliq solish barcha uchun bir xilda majburiy ekanligini belgilab, soliq solishning majburiyligi O'zbekiston Respublikasining asosiy qomusi bo'lgan Konstitutsiyasida qayd etilgan. Asosan soliq solishning navbatdagi prinsipi soliq solishning aniqlik prinsipi bu soliqning aniq qonun bilan belgilangan bo'lishini talab qilib, soliq solishning oshkoralik prinsipi hamma oshkora daromad qildimi hammaga oshkora tarzda soliq to'laydi, ya'ni yashirinlik prinsipi bo'lishi mumkin emas. Adolatlilik prinsipi juda muhim prinsiplardan bo'lib bu soliqlar daromadga qarab adolatli ravishda bo'lishi kerakligini belgilab beradi. Bunda, soliq tizimini yagonaligi butun mamlakat uchun yagona tizim ishlaydi va faoliyat yuritadi va nihoyat oxirgi prinsip soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi, bu ma'lum bir holatning qonunchilik bilan tartibga solinmagan qismi soliq to'lovchining foydasiga ishlashini belgilab beradi.



**2-rasm. Soliq to'lovchilarning shaxsiy kabinetlari**

*Manba:* my.soliq.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqorida keltirilgan rasmda O'zbekiston soliq tizimi organlari va soliq to'lovchilarning o'zaro munosabatlari elektron shakli soliq to'lovchilarni shaxsiy kabinetlarida yuritiladi. Soliq to'lovchilarning elektron shaklda hujjat almashinuvi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016 yil 12 iyulda ro'yxatdan o'tkazilgan (ro'yxat raqami 2808) "Moliyaviy va soliq hisobotlarini aloqaning telekommunikasiya kanallari vositasida soliq xizmati organlariga taqdim etishning tartibi to'g'risida"<sup>19</sup>gi Nizom bilan tartibga solinadi. Nizom qabul qilingandan so'ng ma'lumotlar soliq qo'mitasining asosiy serverlarida saqlanib arxivlanib kelinmoqda. Yuridik va jismoniy shaxslarning ariza va murojaatlarini quyidagi jadval ma'lumotlari qayd etilgan.

Soliq xizmati organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi hujjat aylanishi ikki xil ya'ni qog'oz va elektron hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Qog'oz hujjatlar pochta orqali yoki soliq to'lovchining shaxsan o'ziga hujjatni etkazish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, hujjatlar elektron shaklda ham amalga oshiriladi. Soliq solish amaliyotida soliq to'lovchilarga elektron hujjatlar bilan ishlashda qulaylik yaratish maqsadida soliq to'lovchining shaxsiy kabineti joriy qilingan. O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining rasmiy veb-saytiga joylashtirilgan axborot resursi soliq to'lovchining shaxsiy kabineti hisoblanadi.

<sup>19</sup> Moliyaviy va soliq hisobotlarini aloqaning telekommunikasiya kanallari vositasida soliq xizmati organlariga taqdim etishning tartibi to'g'risida" gi Nizom.

## 1-jadval

## O'zbekiston soliq tizimida soliq munosabatlari doirasida yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari tahlili

Yillar	Arizalar soni (ta)	Yuridik shaxslar (ta)	Jismoniy shaxslar (nafar)	Murojaatlar soni (ta)	Yuridik shaxslar (ta)	Jismoniy shaxslar (nafar)	jami
2016 yil	3234	608	2626	1725	1584	141	4 959
2017 yil	39222	14625	24597	8756	7621	1135	47 978
2018 yil	247757	18681	229076	17620	16445	1175	265 377
2019 yil	104971	41301	63670	163716	158766	4950	268 687
2020 yil	176910	86750	90160	344030	329991	14039	520 940
2021 yil	155785	107003	48782	497732	474135	23597	653 517
2022 yil	141801	91157	50644	792356	737326	55030	934 157
<b>jami</b>	<b>727879</b>	<b>268968</b>	<b>458911</b>	<b>1033579</b>	<b>988542</b>	<b>45037</b>	<b>1761458</b>

*Manba:* my.soliq.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, yuridik va jismoniy shaxslarning shaxsiy kabinet orqali murojaatlari 2016-2022 yillar davomida faqat o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu o'z navbatida soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan elektron hujjat almashinuvining takomillashib va ko'payib borishini belgilab beradi. Soliq to'lovchilarning shaxsiy kabinetlaridan chiquvchi elektron hujjatlar bo'lgani kabi bu kabinetga kiruvchi hujjatlar ham mavjud. Soliq organlarining soliq to'lovchilarga yuborgan elektron murojaatlarini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin. Soliq organlarining soliq to'lovchilarga elektron murojaatlari ularning o'zaro munosabatlarini onlayn shaklda amalga oshirishlariga katta imkoniyatlar yaratib beradi. Soliq to'lovchilarning soliq organlari bilan onlayn muloqotlari soliq organlarida korrupsion holatlarni oldini oladi va o'z navbatida soliq to'lovchilardan vijdonan ishlashni talab qiladi.

## 2-jadval

## Soliq xizmati organlarining soliq to'lovchilarning shaxsiy kabinetiga yuborgan elektron hujjatlar soni


Yillar	Yuridik shaxslar	Yakka tartibdagi tadbirkorlar	Jismoniy shaxslar	jami
2017 yil	168 598	154	1 056	169 808
2018 yil	1 499 583	8 607	48 527	1 556 717
2019 yil	6 992 971	117 131	23 478	7 133 580
2020 yil	13 248 639	1 119 064	12 058	14 379 761
2021 yil	22 050 356	2 598 687	2 055 170	26 704 213
2022 yil	29 000 458	3 618 774	2 011 803	34 631 035
<b>jami</b>	<b>72 960 605</b>	<b>7 462 417</b>	<b>4 152 092</b>	<b>84 575 114</b>

*Manba:* my.soliq.uz sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Soliq organlarining murojaatlar soni ham soliq to'lovchilarning murojaatlariga mutanosib ravishda o'sib borganini yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin. Bu o'z navbatida soliq organlarining ish jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng ko'lamda foydalanilayotganidan darak beradi.

Yuqoridagi jadvalga e'tibor beradigan bo'lsak, 2022 yilning o'zida 2017 yilga nisbatan jami yuborilgan elektron hujjatlar salmog'i 40 foizga o'sishga erishilgan. Bunda asosan hujjatlarni onlayn(virtual) shakllantirish soliq to'lovchilarda ko'nikma hosil bo'lganidan dalolat beradi.

Shu yo'l bilan yashirin iqtisodiyotni jilovlashga qaratilgan soliq ma'murchiligining zamonaviy instrumentlari qatorida shaffoflikni, shuningdek, inson omilisiz operatsiyalarini shakllanishi va amalga oshirilishi natijasida yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va oldini olishga xizmat qilib, korrupsiya illatini bartaraf etish borasida muvaffaqiyatli qadamlardan biri hisoblanadi. Misol uchun, soliq to'lovchi tomonidan bir chorakda katta miqdordagi QQS summasini hisobga olish (kamaytirish) bo'yicha hisob-kitob taqdim etildi. Bu summa o'tgan chorak hisobotida ko'rsatilgan summaga nisbatan farqi juda yuqori. Bunday holatda soliq organi xodimida topshirilgan hisobot yuzasidan shubha tug'iladi va soliq to'lovchiga bunday katta miqdordagi QQS summasini kamaytirish yuzasidan tushuntirish va asoslovchi hujjatlarni taqdim etish bo'yicha soliq organi tomonidan soliq to'lovchining shaxsiy kabinetini orqali tegishli talabnoma yuboriladi. Bu jarayonda soliq to'lovchi o'z xato va kamchiliklarini ko'rib, qayta hisob-kitob qilib o'z xatolarini to'g'ilib qo'yishiga imkoniyat yaratadi.



### 3-rasm. Soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilarning elektron murojaatlari yuzasidan munosabatlari tahlili

*Manba:* muallif tomonidan tayyorlangan.

Soliq organlari soliq to'lovchining shaxsiy kabinetidan samarali tarzda foydalanib kelmoqdalar. Shu tartibni joriy qilinishi bilan soliqchilarning soliq to'lovchilar bilan bevosita muloqoti kamaydi, o'zaro elektron hujjat aylanishida qog'oz sarfi, ishchi kuchi sarfi va pochta bilan bog'liq xarajatlar kamaydi. Bu tejalgan mablag'lar soliq tizimining moddiy texnika bazasini kengaytirishga, soliq organlari xodimlarni malaka oshirishga yuborish imkoniyatlarini yanada kengaytirib berdi. Mavjud axborot texnologiyalaridan samarali foydalangan holda yangi zamonaviy axborot texnologiyalari xarid qilindi.

Quyidagi keltirilgan jadvalda O'zbekiston Respublikasida soliq to'lovchilarning hisobotlarni elektron shaklda topshirish jarayonlari keltirilgan. 2007-2011 yillar davomida tajriba tariqasidagi ma'lumotlar aks ettirilgan. Elektron hujjat almashinuviga o'tish orqali soliq tizimi organlariga va soliq to'lovchilarga ko'plab qulayliklar yaratilgan. Jumladan, soliqqa doir barcha elektron davlat xizmatlari interaktiv va axborot davlat xizmatlariga saralangan bo'lib, bunda kerakli xizmatlarni tez va osonlik bilan qidirish mumkin.

O'z navbatida ularni qidirishni yanada soddalashtirish maqsadida, xizmatlar yo'nalishlarga ajratilgan. Bular murojaatlarni va hisobotlarni yuborish, ro'yxatga olish, soliqlarni hisoblash, ma'lumotnomalar olish kabi 10 ga yaqin yo'nalishlardan iborat. Shu bilan birga, jismoniy va yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun alohida shaxsiy

kabinetlar ochilgan va ushbu kabinetlarda soliq to'lovchi toifasiga tegishli barcha elektron davlat xizmatlari ro'yxati taqdim etiladi.

## 3-jadval

**O'zbekistonda soliq to'lovchilar tomonidan topshirilgan elektron shakldagi hisobotlar tahlili**

t/r	Yillar	Hisobotlar soni (dona)	Soliq to'lovchilar soni (nafar)
1	2007	2590	801
2	2008	141027	24527
3	2009	336234	52004
4	2010	684114	96478
5	2011	1465054	141481
6	2012	2829803	193009
7	2013	3034383	259195
8	2014	4070410	280836
9	2015	4616998	306793
10	2016	8265956	363021
11	2017	9270850	396898
12	2018	9559536	414823
13	2019	10138579	503257
14	2020	12400794	567057
15	2021	13841756	770265
16	2022	18002307	831053

**Manba:** my.soliq.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Soliq organlari bilan barcha yozishmalar va xabarlar alohida blokda yig'iladi. Shu bilan birga, shaxsiy kabinetda soliq to'lovchilar byudjet bilan hisob-kitoblar to'g'risidagi dolzarb ma'lumotlarni kunning istalgan vaqtida olishi mumkin. Har bir xizmat oynasi yagona standart asosida ishlab chiqilgan. Bunda xizmatni tez qidirib topish uchun xizmat belgisi, xizmatning nomi, foydalanish yo'riqnomasi, xizmat bo'yicha mas'ul soliq inspektori to'g'risida ma'lumot, soliq to'lovchilarning fikrlarini o'rganish, taklif va e'tirozlarini ko'rib chiqish uchun xizmatga baho berish hamda izoh qoldirish kabi imkoniyatlar yaratilgan.

## 4-jadval

**Elektron hisobotlar tizimi joriy qilinishining samaradorlik tahlili**

t/r	Soliq to'lovchilar	Soliq xizmati organlari	izoh
1	Bir dona hisobotni topshirishga ketadigan vaqt o'rtacha 2 soat	Bir dona hisobotni qabul qilishga ketadigan vaqt o'rtacha 20 minut	Hisobot blankasi 30 varaqdan iborat bo'lgan
2	2012 yil holati tahlil qilinganda $2829803 \cdot 2(\text{soat}) = 5659606$ kishi/soat vaqt tejalgan	2012 yil holati tahlil qilinganda $2829803 \cdot 1/3(\text{soat}) = 943\,268$ kishi/soat vaqt tejalgan	
3	2012 yilda hisobotlarni topshirish choraklik bo'lgan 193009 nafar subyekt bir yilda kamida 4 marta soliq organlariga tashrif buyurgan. Buning hozirgi kundagi yo'l kira xarajatlari sarfi $2800(\text{so'm}) \cdot 4(\text{marta}) \cdot 193009(\text{nafar}) = 2\,161\,700\,800$ so'm (avtobusda)	Soliq xizmati organlarining xodimlari shu vaqtlarini qo'shimcha manbalar aniqlashga sarflaydilar	

**Manba:** muallif tomonidan tayyorlangan.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari elektron hujjat aylanish tizimining joriy etilishi bilan erishilgan samaradorliklarni keltirib chiqargan.



Bugungi kunda soliq qo'mitasining asosiy strategik vazifasi soliq xizmatining fiskal organdan xizmatga yo'naltirilgan organga o'tishi bo'lib, u davlat nomidan soliq to'lovchilar bilan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali soliq to'lash bo'yicha konstitutsiyaviy burchini bajarish jarayonida ishonchli munosabatlarni shakllantiradi.

### **Xulosa va takliflar.**

Xulosa qilib aytganda elektron hisobvaraƒ-faktura tizimi joriy qilinishi bilan biznesning saffoflik darajasi ortganini ko'rish mumkin. Bundan tashqari yuqori likvidli tovatlar bo'yicha elektron hisobvaraƒ-fakturalarni rad etish muddati kamaytirilgan natijada bu sohadagi yashirin iqtisodoyitni kamaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga axborot texnologiyalarining kirib kelishi soliq to'lovchilarning sonini ortishi va ularni tahlil qilish uchun avtomatlashtirilgan texnologiyalardan foydalanish zarurligi yuzaga kelishi bilan izohlash mumkin. Agar shu tartibda avtomatlashtirilmasa soliq to'lovchilar tomonidan hisobga olingan qo'shilgan qiymat solig'i summasi faqat tekshirish jarayonida aniqlangandan keyin byudjetga undirilishi ta'minlanadi, ammo avtomatlashtirish natijasida bir summani ikki marta hisobga olinishi cheklanadi.

### **Adabiyotlar/Lumepamya/ Reference:**

*Isaev F.I. (2019) "Soliq tahlili metodikasini takomillashtirish". i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -116 bet.*

*Muxammadov N.K. (2024) "Ma'lumotlarni elektron hujjat aylanish tizimida shakllantirish orqali soliq ma'murchiligini takomillashtirish masalalari" mavzusidagi dissertatsiya ishi. Toshkent, 156 bet.*

*Qonun (1997) O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustdagi "Soliq xizmati to'g'risida"gi O'RQ - 474-I-son qonun.*

*Qonun (2019) O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, O'RQ-589-son qonuni, 30 dekabr 2019 yil.*

*Бисултанов Амир Нажмудиевич (2019), Развитие методико-инструментальной базы налогового администрирования условиях цифровизации экономики, автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук, Владикавказ, 26.*

*Жарков А.А. (2014) Система электронного документооборота/ А.А. Жарков// Наука, техника и образование. №3(3).- 65-71 бетлар.*

*Кодекс (2020) Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. –Тошкент: Фафур Фулом нашриёт уйи.- 640 б.*

*Кортиков Федор Сергеевич (2013), Разработка комплекса алгоритмов и программ для повышения производительности функционирования электронного документооборота, автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата технических наук, Санкт-Петербург, 19 с.*

*Кукарина Юлия Михайловна (2004), Формирование и развитие понятия "электронный документ" в зарубежном и Российском законодательстве, автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук, Москва, 32.с.*

*Столбов А.П. (2007) Организаци электронного документооборота в здравоохранении/ Столбов А.П.// Врач и информационные технологии. -№5-33-39 бетлар*

*Черватюк Василий Демянович (2020), Модел и алгоритмы хранилища данных электронного архива технической документаи и электронного документооборота научно-производственной организаци, автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата технических наук, Санкт-Петербург, 20.с.*

*Шрэйтэр К.О. (2015) Электронный документооборот: возможности и преимущества. /К.О.Шрэйтэр// Молодой ученый. №2.-с.52-55.*